




## 2020- yilning yanvar-oktabr oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Farg'ona viloyatida jami **4 046,4** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **97,3 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



### Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda






2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 174 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 333 taga oshdi.











Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **113,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **55,6 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **111,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **10,8 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **109,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **33,6 %**) o'sishidir.




**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.11.2019- yil	01.11.2020- yil	
	<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2842</b>	<b>3174</b>	<b>111,7</b>
	<i>shaharlar:</i>			
	<b>Farg'ona</b>	<b>756</b>	<b>846</b>	<b>111,9</b>
	<b>Qo'qon</b>	<b>296</b>	<b>318</b>	<b>107,4</b>
	<b>Quvasoy</b>	<b>101</b>	<b>112</b>	<b>110,9</b>
	<b>Marg'ilon</b>	<b>276</b>	<b>316</b>	<b>114,5</b>
	<i>tumanlar:</i>			
	<b>Oltiariq</b>	<b>91</b>	<b>106</b>	<b>116,5</b>
	<b>Qo'shtepa</b>	<b>96</b>	<b>105</b>	<b>109,4</b>
	<b>Bag'dod</b>	<b>145</b>	<b>159</b>	<b>109,7</b>
	<b>Buvayda</b>	<b>119</b>	<b>129</b>	<b>108,4</b>
	<b>Beshariq</b>	<b>76</b>	<b>82</b>	<b>107,9</b>
	<b>Quva</b>	<b>136</b>	<b>136</b>	<b>100,0</b>
	<b>Uchko'prik</b>	<b>153</b>	<b>170</b>	<b>111,1</b>

	Rishton	62	70	112,9
	So'x	32	42	131,3
	Toshloq	124	135	108,9
	O'zbekiston	72	83	115,3
	Farg'ona	68	95	139,7
	Dang'ara	116	122	105,2
	Furqat	62	71	114,5
	Yozyovon	61	77	126,2


## Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni, 01.11.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona sh. (26,7 %), Qo'qon shaxri (10,0 %) va Marg'ilon (10,0 %) shaharlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **359,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **67,3 %** ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **4,0 %** punktga kamayib, **8,9 %** ni tashkil etdi.

**2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**



■ ulushi, % da    ■ o'sish sur'ati, % da




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Yozyovon tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **38,9 %** i yoki 2019- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **62,6 %**), Quvasoy (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **24,9 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,9** marta), va Qo'qon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **22,3 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **55,9 %** ) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlari bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **68,2 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **5,6 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **106,5 %** ni tashkil etgan holda **2 758,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi, % da




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **22,9 %** ni tashkil etdi yoki **927,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **89,9 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **113,8** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 932,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,8 %** va **97,2 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2020- yil yanvar-oktabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 58,2 % i yoki **2 356,6** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

58,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **214,3** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,1 % ni tashkil etdi

9,1 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 327,7** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 56,3 % ni tashkil etdi.

56,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **814,5** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 34,6 % ni tashkil etdi.

34,6 %





**2020- yilning yanvar-oktabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
<b>Farg'ona viloyati*</b>	<b>4 046,4</b>	<b>97,3</b>	<b>2 356,6</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	1073,8	113,4	429,2
Qo'qon	299,7	80,1	162,1
Quvasoy	196,1	133,0	147,4
Marg'ilon	560,2	94,5	428,2
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	164,5	108,3	46,8
Qo'shtepa	175,4	88,8	69,0
Bag'dod	282,1	100,2	183,2
Buvayda	100,6	101,3	49,6
Beshariq	94,4	37,0	247,9
Quva	167,3	114,9	128,1
Uchko'prik	124,2	103,2	28,6
Rishton	58,9	93,9	27,9
So'x	74,0	126,3	7,8
Toshloq	101,1	103,5	49,3
O'zbekiston	91,0	123,0	77,7
Farg'ona	70,3	95,9	24,2
Dang'ara	179,5	83,9	146,2
Furqat	118,9	88,6	76,2
Yozyovon	114,4	88,0	27,1

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **5,2 %** ni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,6 %** punktga kamaygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **6,4 %** punktga ko'payib, **65,7 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,8 %** punktga kamayib, **29,1 %** ni tashkil etdi.


*ulushi, % da*



**Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **29,3 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **3,2 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **70,1 %** (**3,8 %** punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,5 %** (**0,8 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **11,9 %** punktga kamaydi va **14,0 %** ni tashkil etdi. Qolgan **86,0 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **11,9 %** punktga ko'paydi.


ulushi, % da



2020- yilning yanvar-oktabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm

Farg'ona sh.  
1 073,8



Marg'ilon sh.  
560,2



Qo'qon sh.  
299,7



Bag'dod t.  
282,1



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Farg'ona sh. (1073,8 mlrd. so'm), Marg'ilon sh. (560,2 mlrd. so'm), Qo'qon sh. (299,7 mlrd. so'm), Bag'dod t. (282,1 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.





**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**ijr : U.Umarov**

**Tel.: (73) 249-87-26  
(73)-241-98-42**